




TA'LIM TRANSFORMATSIYASI

BUXORO DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

RESPUBLIKA OAK JURNALI



2026, 3-SON

ISSN 2181-4201

<https://etjournal.buxdpi.uz>



BUXORO DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

TA'LIM TRANSFORMATSIYASI

ILMIY – METODIK JURNAL

№. 3

BUXORO – 2026

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA MULOQOTCHANLIKNI SHAKLLANTIRISHNING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK ASOSLARI VA RIVOJLANTIRISH OMILLARI

Berdiyeva Umida G‘oyibberdiyevna,

Buxoro davlat pedagogika instituti,

Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (maktabgacha ta’lim) magistranti

Annotatsiya. Mazkur maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarda muloqotchanlikni shakllantirishning pedagogik va psixologik asoslari tahlil qilingan. Muloqotchanlikning shaxs rivojlanishidagi o‘rni, uning nutqiy, kognitiv, emotsional va ijtimoiy komponentlari yoritilgan. Shuningdek, bolalarda muloqotchanlikni rivojlantirishga ta’sir etuvchi omillar, jumladan, oila muhiti, tengdoshlar bilan munosabatlar, ta’lim-tarbiya jarayoni va o‘yin faoliyatining ahamiyati ochib berilgan. Maqolada ijodiy o‘yinlar, integratsion yondashuv hamda badiiy adabiyot va ertaklarning kommunikativ kompetensiyani rivojlantirishdagi imkoniyatlari ilmiy-pedagogik nuqtai nazardan asoslangan.

Kalit so‘zlar: maktabgacha ta’lim, muloqotchanlik, kommunikativ kompetensiya, nutq rivojlanishi, ijodiy o‘yinlar, integratsion yondashuv, badiiy adabiyot, ertaklar, ijtimoiylashuv, pedagogik texnologiyalar.

ПЕДАГОГИКО-ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ И ФАКТОРЫ РАЗВИТИЯ КОММУНИКАТИВНОСТИ У ДЕТЕЙ ДОШКОЛЬНОГО ВОЗРАСТА

Бердиева Умида Гайибердиевна,

Бухарский государственный педагогический институт,

Теория и методология образования и воспитания (дошкольное образование)

Студентка 1 курса магистратуры

Аннотация. В статье рассматриваются педагогические и психологические основы формирования коммуникативности у детей дошкольного возраста. Раскрывается значение коммуникативности в развитии личности ребенка, анализируются ее речевые, когнитивные, эмоциональные и социальные компоненты. Особое внимание уделяется факторам, влияющим на развитие коммуникативных навыков, таким как семейная среда, взаимодействие со сверстниками, образовательный процесс и игровая деятельность. Обосновывается роль творческих игр, интегративного подхода, художественной литературы и сказок в формировании коммуникативной компетентности дошкольников.

Ключевые слова: дошкольное образование, коммуникативность, коммуникативная компетентность, развитие речи, творческие игры, интегративный подход, художественная литература, сказки, социализация, педагогические технологии.

PEDAGOGICAL AND PSYCHOLOGICAL FOUNDATIONS AND DEVELOPMENT FACTORS OF COMMUNICATIVENESS IN PRESCHOOL CHILDREN

Berdiyeva Umida Gayiberdiyevna,

Bukhara State Pedagogical Institute,

Theory and Methodology of Education and Upbringing
(preschool education) 1st year master’s student

Abstract. This article examines the pedagogical and psychological foundations of developing communicative skills in preschool children. The role of communicativeness in personality development and its linguistic, cognitive, emotional, and social components are analyzed. Particular attention is paid to the factors influencing communicative development, including family environment, peer interaction, educational processes, and play activities. The study also highlights the significance of creative games, an integrative approach, children’s literature, and fairy tales in fostering communicative competence among preschool children.

Keywords: preschool education, communicativeness, communicative competence, speech development, creative games, integrative approach, children’s literature, fairy tales, socialization, pedagogical technologies.

Maktabgacha yosh davri insonning shaxs sifatida shakllanishida eng muhim bosqichlardan biri hisoblanadi. Aynan shu davrda bolalarda nutq, tafakkur, emotsional barqarorlik hamda ijtimoiy muloqot ko‘nikmalari jadal rivojlanadi. Shu sababli maktabgacha ta’lim jarayonida bolalarning muloqotchanlik qobiliyatini shakllantirish dolzarb pedagogik muammo sifatida qaraladi.

Bugungi kunda ta’lim tizimida ijodiy yondashuvga asoslangan metodlardan foydalanish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Xususan, ijodiy o‘yinlar bolalarning tabiiy ehtiyojlari, qiziqishlari va psixologik xususiyatlariga mos kelgani uchun samarali pedagogik vosita sifatida e’tirof etiladi.

Muloqotchanlik shaxsning ijtimoiy hayotda boshqa insonlar bilan o‘zaro aloqaga kirishish, fikr almashish, his-tuyg‘ularni ifodalash va hamkorlikda faoliyat yuritish qobiliyatidir. Maktabgacha yoshdagi bolalarda muloqotchanlik faqat nutqiy ko‘nikma emas, balki emotsional, kognitiv va ijtimoiy rivojlanishning muhim komponenti sifatida namoyon bo‘ladi.

Psixologik nuqtai nazardan, muloqotchanlik bola shaxsining ijtimoiylashuvi jarayonida shakllanadi. L.S. Vigotskiy nazariyasiga ko‘ra, bola rivojlanishi avvalo ijtimoiy muhitda, kattalar va tengdoshlar bilan muloqot jarayonida amalga oshadi. Shu bois muloqotchanlikni rivojlantirish ta’lim-tarbiya jarayonining markaziy vazifalaridan biri hisoblanadi.

Pedagogik jihatdan muloqotchanlik bolalarning nutqiy faoliyatini rivojlantirish, so‘z boyligini oshirish, dialog va monolog nutqini shakllantirish orqali amalga oshiriladi. Bu jarayonda bola o‘z fikrini erkin ifoda etish, savol berish va javob qaytarish ko‘nikmalarini egallaydi.

Bolalarda nutq va muloqot rivojlanishining yosh xususiyatlari muhim hisoblanadi. 3–7 yosh oralig‘i maktabgacha davr bo‘lib, bu davrda nutq rivojlanishi juda tez sur’atlarda kechadi. Dastlab bola sodda so‘z va iboralarni ishlatib, keyinchalik murakkab gap tuzish, voqealarni ketma-ket bayon qilish, tasvirlash va izohlash ko‘nikmalarini egallaydi.

Kichik guruh yoshidagi bolalarda nutq asosan situativ xarakterga ega bo‘ladi, ya’ni ular aniq vaziyatga bog‘liq holda muloqot qiladi. Katta guruhga kelib esa kontekstual nutq rivojlanib, bola vaziyatdan mustaqil ravishda fikr bildiradi.

Shuningdek, bu davrda fonematik eshitish, grammatik to‘g‘rilik va lug‘at boyligi jadal rivojlanadi. Muloqot jarayonida bolalar savol-javob qilish, hikoya tuzish va dialog qurish kabi ko‘nikmalarni egallaydilar.

Maktabgacha yoshdagi bolalarda muloqotchanlikning shakllanishi bir qator tashqi va ichki omillarga bog‘liq.

Birinchi muhim omil — oila muhiti. Ota-ona bilan doimiy muloqot, erkin suhbatlar va qo‘llab-quvvatlovchi muhit bolaning nutqiy faolligini oshiradi.

Ikkinchi omil — ta’lim-tarbiya jarayoni. Maktabgacha ta’lim muassasasida pedagogning metodik mahorati, dars va o‘yinlarning to‘g‘ri tashkil etilishi muloqotchanlikni rivojlantirishda muhim rol o‘ynaydi.

Uchinchi omil — tengdoshlar bilan muloqot. Bolalar o‘zaro o‘yin jarayonida fikr almashadi, kelishadi, bahslashadi va bu orqali ijtimoiy muloqot ko‘nikmalari shakllanadi.

To‘rtinchi omil — o‘yin faoliyati. Ayniqsa ijodiy o‘yinlar bola nutqini faollashtiradi, tasavvur va fikrlashni kengaytiradi hamda muloqotga kirishish ehtiyojini kuchaytiradi.

Shuningdek, individual psixologik xususiyatlar, temperament va til muhitining boyligi ham muloqotchanlik rivojiga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarda muloqotchanlikni shakllantirish jarayonida ijodiy o‘yinlar yaxlit metodik tizim sifatida qaralib, u o‘zaro uzviy bog‘langan tamoyillar, o‘yin turlari, tashkil etish bosqichlari hamda pedagog faoliyatini bir butun pedagogik jarayon sifatida birlashtiradi va bu yondashuvning markazida bola shaxsi turadi, chunki metodik tamoyillar aynan bolani faol subyekt sifatida rivojlantirishga yo‘naltiriladi: faollik va mustaqillik tamoyili bolani tayyor bilimni qabul qiluvchi emas, balki jarayonning faol ishtirokchisi sifatida shakllantirsa, o‘yin orqali o‘qitish tamoyili ta’lim mazmunini tabiiy, qiziqarli va bolaga yaqin shaklda yetkazishga xizmat qiladi, individual yondashuv esa har bir bolaning psixologik xususiyatlari, nutqiy rivojlanish darajasi va imkoniyatlarini hisobga olishni talab etadi, emotsional qulaylik tamoyili esa bolada ishonch, erkinlik va ijodiy faollikni kuchaytiruvchi ijobiy psixologik muhitni yaratadi, shu tamoyillar asosida tashkil etilgan rolli o‘yinlar bolalarga turli ijtimoiy rollarni egallash va real hayotiy vaziyatlarni modellashtirish imkonini berib, “Shifokor va bemor”, “Do‘kon”, “Oila” kabi o‘yinlar jarayonida bolalar dialog qurish, savol-javob qilish, o‘z fikrini ifodalash va suhbatni davom ettirish kabi muloqot ko‘nikmalarini egallab, nutqiy faolligini oshiradilar hamda ijtimoiy muloqotga kirishish qobiliyatini mustahkamlaydilar, sahnalashtirilgan o‘yinlar metodikasi esa ertak va hikoyalarni jonlantirishga asoslanib, bolalarning matn mazmunini qayta ifodalash, qahramonlar obraziga kirish va emotsional holatlarni nutq orqali ifodalash jarayonida dialogik hamda monologik nutq, mantiqiy izchillik va emotsional ifoda madaniyatini rivojlantiradi, bunday ijodiy o‘yinlarni tashkil etish esa izchil pedagogik ketma-ketlikda amalga oshirilib, avvalo tayyorgarlik bosqichida mavzu tanlanib maqsad belgilanadi, keyin tashkiliy bosqichda rollar taqsimlanib zarur sharoit yaratiladi, so‘ng o‘yin jarayonida bolalar faol ishtirok etib muloqotga kirishadilar va yakuniy bosqichda tahlil hamda muhokama orqali ularning nutqiy faoliyati mustahkamlanadi, ushbu butun jarayonda pedagogning roli hal qiluvchi ahamiyatga ega bo‘lib, u o‘yinni rejalashtiradi, maqsad va mazmunni belgilaydi, bolalarni yo‘naltiradi, muloqotni rag‘batlantiradi hamda eng muhimi, bolalar uchun ijobiy psixologik muhit yaratib, ularning erkin fikrlashi va faol ishtirokini ta’minlaydi.

Muloqotchanlik shaxsning o‘z fikrini aniq va ravon ifodalashi, boshqalarni tinglay olishi, suhbat jarayonida hamkorlikni yo‘lga qo‘yishi hamda turli ijtimoiy vaziyatlarda samarali muloqot olib borish qobiliyatida integratsion yondashuv muhim o‘rin tutadi. Chunki muloqotchanlik faqat til yoki nutq bilan bog‘liq ko‘nikma emas, balki tafakkur, ijtimoiy tajriba, madaniyat, axloq va amaliy faoliyatning o‘zaro uyg‘unlashuvi natijasida rivojlanadi. Shu sababli muloqotchanlikni shakllantirish jarayonida turli fanlar, metodlar va faoliyat turlarining integratsiyasidan foydalanish zarur.

Avvalo, fanlararo integratsiya muloqotchanlikni rivojlantirishning samarali vositalaridan biridir. O'quvchi faqat ona tili darsida emas, balki tarix, adabiyot, biologiya yoki geografiya kabi fanlarda ham o'z fikrini ifodalashga ehtiyoj sezadi. Masalan, tarix darsida Amir Temurning davlat boshqaruvi haqidagi mavzu muhokama qilinayotganda o'quvchilar guruhlariga bo'linib, turli nuqtai nazarlarni himoya qiladilar. [9, B-73.] Bu jarayonda ular tarixiy bilimlarni egallash bilan birga, dalillar asosida fikr bildirish, suhbatdoshni tinglash va munozara olib borish ko'nikmalarini ham rivojlantiradilar. Natijada muloqot vositasi sifatida tilning amaliy imkoniyatlari kengayadi.

Muloqotchanlikni rivojlantirishda ta'lim va tarbiyaning integratsiyasi ham muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki samarali muloqot faqat so'zlash qobiliyatiga emas, balki muomala madaniyati, hurmat, bag'rikenglik va odob me'yorlariga ham bog'liqdir. Masalan, sinfda jamoaviy loyiha bajarish jarayonida ayrim o'quvchilar o'z fikrini qat'iy himoya qilishi, boshqalarning fikrini esa inkor etishi mumkin. O'qituvchi bunday vaziyatda nafaqat topshiriqning bajarilishiga, balki o'quvchilarning bir-biriga nisbatan hurmat bilan munosabatda bo'lishiga ham e'tibor qaratadi. Bu esa kommunikativ ko'nikmalar bilan bir qatorda ijtimoiy va axloqiy sifatlarning ham shakllanishiga xizmat qiladi. Shuningdek, nazariya va amaliyot integratsiyasi muloqotchanlikning barqaror rivojlanishini ta'minlaydi. Nutq madaniyati, muloqot qoidalari yoki notiqlik haqidagi nazariy bilimlar amaliy mashqlar bilan mustahkamlanmasa, ular yetarli samara bermaydi. Masalan, o'quvchilar rasmiy murojaat yozish qoidalarini o'rganganlaridan so'ng maktab ma'muriyatiga taklif xati tayyorlaydilar yoki muayyan muammo yuzasidan taqdimot qiladilar. Bunday faoliyat nazariy bilimlarning real kommunikativ vaziyatlarda qo'llanishiga imkon yaratadi va muloqot tajribasini boyitadi.

Integratsiyaning yana bir ko'rinishi individual va jamoaviy faoliyatning uyg'unlashuvida namoyon bo'ladi. Muloqot avvalo shaxsning mustaqil fikrlashiga tayansa-da, uning samaradorligi jamoa bilan ishlash jarayonida namoyon bo'ladi. Masalan, o'quvchi avval biror mavzu bo'yicha mustaqil ma'lumot to'playdi, keyinchalik esa guruh bilan birgalikda ushbu ma'lumotlarni tahlil qiladi va umumiy xulosaga keladi. Bu jarayonda u o'z nuqtai nazarini asoslash, boshqalarning fikrini qabul qilish yoki zarur hollarda o'z qarashlarini qayta ko'rib chiqishni o'rganadi. Natijada muloqot madaniyati va hamkorlik kompetensiyasi rivojlanadi.

Bugungi kunda an'anaviy va raqamli ta'lim vositalarining integratsiyasi ham muloqotchanlikni shakllantirishda muhim omil hisoblanadi. Zamonaviy ta'lim jarayonida yuzma-yuz muloqot bilan bir qatorda onlayn platformalar, forumlar, videokonferensiyalar va ijtimoiy tarmoqlardan ham foydalaniladi. Masalan, o'quvchilar bir loyiha ustida ishlash jarayonida sinfda muhokama olib borishlari, keyinchalik esa onlayn guruh orqali fikr almashishlari mumkin. Bu ularga turli kommunikativ muhitlarga moslashish, yozma va og'zaki muloqot ko'nikmalarini birgalikda rivojlantirish imkonini beradi.

Muloqotchanlikni shakllantirishda integratsiya turli bilimlar, faoliyat turlari va tarbiyaviy ta'sirlarning o'zaro bog'lanishini ta'minlaydi. Fanlararo aloqalar, ta'lim va tarbiya birligi, nazariya va amaliyot uyg'unligi hamda an'anaviy va zamonaviy vositalarning birgalikdagi qo'llanilishi natijasida o'quvchilarning kommunikativ kompetensiyasi izchil rivojlanadi. Shu tariqa integratsion yondashuv muloqotga kirisha oladigan, o'z fikrini asosli ifodalaydigan va ijtimoiy munosabatlarda faol ishtirok etadigan shaxsni tarbiyalashga xizmat qiladi.

Maktabgacha yosh davri bolaning nutqi, tafakkuri va ijtimoiy munosabatlari jadal

rivojlanadigan bosqich hisoblanadi. Ushbu davrda badiiy adabiyot va ertaklar bolalarning muloqotchanlik sifatlarini shakllantirishda muhim pedagogik vosita sifatida xizmat qiladi. Chunki ertaklar va badiiy asarlar bolani nafaqat yangi bilimlar bilan tanishtiradi, balki uni tinglash, tushunish, fikr bildirish, savol berish va suhbatda faol ishtirok etishga undaydi. Avvalo, badiiy adabiyot va ertaklar bolalarning lug‘at boyligini kengaytiradi. Ertaklar matnida kundalik nutqda kam uchraydigan yangi so‘zlar, iboralar va tasviriyl ifodalar uchraydi. Bola ertakni tinglash jarayonida ushbu birliklarni o‘zlashtiradi va asta-sekin o‘z nutqida qo‘llay boshlaydi. Masalan, “Zumrad va Qimmat” ertagini tinglagan bola mehribonlik, saxovat, sabr-toqat kabi tushunchalarni anglaydi va ularga oid so‘zlardan foydalanishni o‘rganadi. Lug‘at boyligining ortishi esa muloqot jarayonida fikrni aniqroq ifodalash imkonini beradi.

Bundan tashqari, ertaklar bolalarda bog‘lanishli nutqni rivojlantiradi. Bola ertak mazmunini qayta hikoya qilish, voqealar ketma-ketligini izohlash yoki qahramonlar haqida gapirish orqali izchil fikrlash va ravon nutq qurishga o‘rganadi. Masalan, tarbiyachi ertak o‘qib bo‘lgach, bolalardan voqealarni boshidan oxirigacha hikoya qilib berishni so‘rashi mumkin. Bunday topshiriqlar bolaning nutqiy izchilligi va muloqot faolligini oshiradi.

Ertaklar bolalarda dialogik nutq ko‘nikmalarini shakllantirishga ham xizmat qiladi. Ertak qahramonlari o‘rtasidagi suhbatlarni o‘qish yoki sahnalashtirish jarayonida bolalar savol berish, javob qaytarish, suhbatdosh fikrini tinglash kabi kommunikativ harakatlarni o‘zlashtiradilar. Masalan, “Bo‘g‘irsoq” ertagini rollarga bo‘lib ijro etish vaqtida bolalar qahramonlar nutqini ifodalaydilar, bir-biriga murojaat qiladilar va muloqot jarayonida faol qatnashadilar.

Badiiy adabiyotning yana bir muhim jihati shundaki, u bolalarda emotsional va ijtimoiy muloqot tajribasini boyitadi. Ertak qahramonlarining quvonchi, qayg‘usi, qo‘rquvi yoki muvaffaqiyatlarini kuzatish orqali bolalar his-tuyg‘ularni tushunishga va ularni ifodalashga o‘rganadilar. Bu esa empatiya, ya‘ni boshqalarning hissiyotlarini his qilish qobiliyatini rivojlantiradi. Empatiya esa samarali muloqotning muhim shartlaridan biridir. Shuningdek, ertaklar bolalarni mustaqil fikr bildirishga va baholashga undaydi. Tarbiyachi ertak yuzasidan “Qahramonning o‘rnida sen nima qilarding?”, “Nima uchun u shunday yo‘l tutdi?” kabi savollar bersa, bolalar o‘z munosabatlarini bayon qiladilar. Bu jarayonda ular nafaqat fikr yuritadilar, balki o‘z qarashlarini boshqalarga tushunarli tarzda yetkazishga ham harakat qiladilar. [4, B-38.]

Ertaklarni sahnalashtirish va dramatizatsiya qilish esa muloqotchanlikni rivojlantirishning eng samarali usullaridan biri hisoblanadi. Sahna ko‘rinishlari davomida bolalar qahramonlarning nutqini ifodalash, auditoriya oldida gapirish, hamkorlikda faoliyat yuritish va o‘zaro muloqot qilish tajribasini egallaydilar. Natijada ularda nutqiy faollik, o‘ziga ishonch va kommunikativ tashabbuskorlik rivojlanadi.

Badiiy adabiyot va ertaklar maktabgacha yoshdagi bolalarda muloqotchanlikni shakllantirishning muhim vositalaridan biridir. Ular lug‘at boyligini kengaytiradi, bog‘lanishli va dialogik nutqni rivojlantiradi, emotsional sezgirlikni kuchaytiradi, mustaqil fikrlashni rag‘batlantiradi hamda bolalarni faol kommunikativ faoliyatga jalb qiladi. Shu sababli maktabgacha ta’lim tashkilotlarida ertak va badiiy asarlardan maqsadli foydalanish bolalarning kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirishning samarali yo‘li hisoblanadi.

Maktabgacha ta’lim tizimida muloqotchanlik bolaning shaxs sifatida shakllanishi, ijtimoiylashuvi va keyingi ta’lim bosqichlariga tayyorlanishida muhim ahamiyat kasb etadi. Muloqotchanlik bolaning o‘z fikrini erkin ifodalashi, atrofdagilar bilan samarali munosabat

o'rnatishi, tinglash va tushunish qobiliyatlarini rivojlantiruvchi asosiy kompetensiyalardan biridir. Shu sababli maktabgacha ta'lim jarayonida bolalarda muloqotchanlikni rivojlantirish ustuvor vazifalardan biri hisoblanadi.

Avvalo, muloqotchanlik bolaning ijtimoiylashuvini ta'minlaydi. Maktabgacha ta'lim tashkilotida bola oiladan tashqaridagi yangi ijtimoiy muhitga kiradi va tengdoshlari hamda tarbiyachilar bilan munosabat o'rnatishni o'rganadi. Muloqot jarayonida u salomlashish, iltimos qilish, minnatdorchilik bildirish, navbat kutish va kelishuvga erishish kabi ijtimoiy xulq-atvor me'yorlarini egallaydi. Masalan, jamoaviy o'yin davomida bolalar o'zaro fikr almashib, umumiy qoidalarga rioya qilish orqali hamkorlik ko'nikmalarini rivojlantiradilar.

Muloqotchanlik bolaning nutqiy rivojlanishiga xizmat qiladi. Bola qanchalik ko'p muloqot qilsa, uning lug'at boyligi, talaffuzi va bog'lanishli nutqi shunchalik rivojlanadi. Masalan, ertak mazmunini hikoya qilish, rasm asosida suhbat tuzish yoki savollarga javob berish jarayonida bolalar yangi so'zlarni o'zlashtiradilar va ularni nutqda qo'llashni o'rganadilar. Natijada ularning og'zaki nutqi boyib boradi.

Shuningdek, muloqotchanlik bilish jarayonlarining rivojlanishiga yordam beradi. Bola savol berish, javob izlash va fikr almashish orqali atrof-muhit haqidagi tasavvurlarini kengaytiradi. Masalan, tabiat hodisalari haqida suhbatlashish jarayonida bolalar nafaqat yangi bilimlarga ega bo'ladilar, balki o'z kuzatishlarini boshqalarga tushuntirishga ham harakat qiladilar. Bu esa tafakkur va nutqning o'zaro rivojlanishiga xizmat qiladi.[2, B-124.]

Muloqotchanlikning yana bir muhim vazifasi bolaning emotsional rivojlanishini qo'llab-quvvatlashidir. Muloqot orqali bola o'z his-tuyg'ularini ifodalashni, boshqalarning hissiyotlarini tushunishni va ularga mos munosabat bildirishni o'rganadi. Masalan, tengdoshining xafa bo'lganini ko'rgan bola unga tasalli berishga harakat qilishi mumkin. Bu esa empatiya va emotsional madaniyatning shakllanishiga yordam beradi.

Muloqotchanlik maktabga tayyorgarlik jarayonida ham muhim o'rin tutadi. Maktab ta'limida o'quvchi o'qituvchining topshiriqlarini tushunishi, savollarga javob berishi, o'z fikrini asoslab bayon qilishi va sinfdoshlari bilan hamkorlik qilishi talab etiladi. Maktabgacha davrda shakllangan muloqot ko'nikmalari ushbu faoliyatlarining muvaffaqiyatli amalga oshirilishiga zamin yaratadi.

Demak, maktabgacha ta'limda muloqotchanlik bolaning ijtimoiy, nutqiy, kognitiv va emotsional rivojlanishining muhim omili hisoblanadi. U bolaning jamoaga moslashishi, bilimlarni samarali o'zlashtirishi, o'z fikrini erkin ifodalashi va sog'lom ijtimoiy munosabatlar o'rnatishiga xizmat qiladi. Shu sababli maktabgacha ta'lim jarayonida bolalarning muloqotchanligini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratish zarur.

Foydalanilgana adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi. "Ilk qadam" maktabgacha ta'lim tashkilotining Davlat o'quv dasturi. – Toshkent, 2022.
2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi. Maktabgacha ta'lim va tarbiyaning davlat standarti. – Toshkent, 2020.
3. Qodirova F.R., Toshpo'latova Sh.Q., Kayumova N.M., A'zamova M.N. Maktabgacha pedagogika. – Toshkent: Tafakkur, 2019.
4. Qodirova F.R. Maktabgacha yoshdagi bolalar nutqini rivojlantirish nazariyasi va metodikasi. – Toshkent: Istiqlof, 2006.
5. Qodirova F.R. Bolalar nutqini rivojlantirish metodikasi. – Toshkent, 2013.
6. Jumayev M., Nurullayeva Sh. Maktabgacha ta'limda badiiy adabiyot. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2018.

7. Vygotskiy L.S. Воображение и творчество в детском возрасте. – Moskva: Prosveshcheniye, 1991.
8. Bettelheim B. The Uses of Enchantment: The Meaning and Importance of Fairy Tales. – New York: Vintage Books, 2010.
9. Zunnunov A., Mahkamov U. Pedagogika nazariyasi va tarixi. – Toshkent: Sharq, 2007.

MUNDARIJA

PEDAGOGIKA , PSIXOLOGIYA VA METODIKA	
O'QUVCHILAR TANQIDIY FIKRLASHINI INTENSIVLASHTIRISH: PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALAR VA METODOLOGIK YONDASHUVLAR <i>Allamuratova Xurliman Nurilla qizi</i>	4
SPORT GIMNASTIKASIDA MUSOBAQA YUKLAMALARINI BOSHQARISHNING YOSHGA XOS XUSUSIYATLARI <i>Sayfiyev Hikmatullo Xayrulloevich</i>	11
O'SMIRLARDA JINOYAT MOTIVLARINI KELTIRIB CHIQARUVCHI IJTIMOIY-PSIXOLOGIK OMILLAR <i>Jumayeva Matluba Nodirovna</i>	23
ISSIQ IQLIM SHAROITIDA YOSH YENGIL ATLETIKACHILAR ORGANIZMINING ISSIQLIKKA MOSLASHUV MODELINI TAKOMILLASHTIRISH <i>Nuriddinov Axrorjon Bahodir o'g'li</i>	27
ART TERAPIYA ORQALI KREATIV KOMPETENSIYALARNI SHAKLLANTIRISHNING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI <i>Azalova Alvina Yusuf qizi</i>	34
TALABALARNING TEXNIK VA TEXNOLOGIK KOMPETENTLIGINI SHAKLLANTIRISH <i>Orinbetov Nurilla Turdimuratovich</i>	42
OLIY O'QUV YURTI TALABALARIDA YENGIL ATLETIKA MASHG'ULOTLARINING JISMONIY MOSLASHUV KO'RSATKICHLARIGA TA'SIRI <i>Sirojev Shoxrux Fayzullo o'g'li</i>	50
GANDBOLDA HUYUMCHI TEXNIKASINI TAKOMILLASHTIRISHNING ILMIY-USLUBIY ASOSLARI <i>Yarasheva Dilnoza Ismoil qizi</i>	57
YOSH SPORTCHILARDA EMOTSIONAL INTELLEKT VA SPORT MUVAFFAQIYATI O'RTASIDAGI BOG'LIQLIK <i>Saidova Mushtariybonu Azamat qizi</i>	63
RAQAMLI TA'LIM MUHITIDA MUHANDISLIK GRAFIKASI FANINI O'QITISH ORQALI TALABALARINING FAZOVIIY VA MUHANDISLIK TAFAKKURINI RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI <i>B.D.Esboganova</i>	70
O'ZGARUVCHAN TA'LIM PARADIGMASI SHAROITIDA BO'LAJAK CHAQIRIQQACHA HARBIY TA'LIM O'QITUVCHISINING TA'LIM TIZIMIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNI JORIY ETISHDA DEONTALOGIK YONDASHUVI <i>Samadov Abdulaziz Ashurovich</i>	74
KOLLABORATIV YONDASHUV ASOSIDA BO'LAJAK O'QITUVCHILARNING "ICHKI KOMPASI"NI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK IMKONIYATLARI <i>Sharipova Ferangiza Sayodovna, Kurbanova Gulnoz Negmatovna</i>	80
MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA MULOQOTCHANLIKNI SHAKLLANTIRISHNING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK ASOSLARI VA	87